

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

“РЎЙХАТГА ОЛИНДИ”

№ ВМ – 343 – 5А340801 – 2.01

“1” ИЮЛЬ 2003 й.

“ТАСДИҚЛАНДИ”
Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус
таълим вазирлиги

“8” ИЮЛЬ 2003 й.

**BYuDJET HISOBI VA HISOBOTI
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 –“Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasidagi
5A340603 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” magistratura
mutaxassisligi uchun**

Tashkent – 2003

Tuzuvchilar: prof. Xasanov B.A.
dots. Maxmudov A.N.

Taqrizchilar: prof. Karimov A.
dots. Usanov A.

«Byudjet hisobi va hisoboti» fani dasturi Davlat Ta'lim Standarti asosida tuzilgan bo'lib, Oliy ta'limning **5A340902 «Audit» (iqtisodiyot tarmoqlari)** mutaxassisligidan magistrnlarni tayyorlash uchun mo'ljallangan.

Dasturda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mavzulari, innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari, tavsiya etilayotgan mavzular bo'yicha ko'rgazma-namoyish materiallari, o'quv filmlari, reyting asosida baholash mezonlari hamda adabiyotlar ro'yxati o'z ifodasini topgan.

Программа по предмету «Бюджетный учет и отчетность» составлена на основе Государственного образовательного стандарта высшего образования для подготовки магистров по специальности **5A340902 «Аудит» (по отраслям экономики)**.

В программе содержатся темы лекционных и практических занятий, возможности использования компьютерных и информационных технологий, учебных фильмов, список используемой литературы и критерии оценок по рейтинговой системе.

Budgetary accounting and reporting disciplines program is worked out in accordance with state Educational system of Higher Education for masters. Preparation in "Auditing" major 5A340902 (economic branches).

The program contains the lecture and seminar topics computer skills and information technologies teaching video tapes, the list of literature for usage evaluation teaching on rating system.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgust 343-sonli qaroriga muvofiq Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilgan. Mazkur standartlar bo'yicha har bir o'qitiladigan fanlardan dasturlar tayyorlash zaruriyati tug'ildi. «Byudjet hisobi va hisoboti» fani bo'yicha ushbu dastur qo'yilgan barcha talablar asosida tuzilgan bo'lib, «Audit» mutaxassisligi magistrantlari uchun mo'ljallangan.

O'quv fanining maqsad va vazifalari

O'zbekiston Respublikasi o'z byudjetiga egadir. U Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar byudjeti va mahalliy byudjetdan iborat. «Byudjet hisobi va hisoboti» fanini o'qitishning maqsadi - kelgusida yuqori malakali iqtisodchi mutaxassislar bo'lib etishadigan magistrnlarni tayyorlash uchun hozirgi zamon talablari asosida O'zbekiston Respublikasi byudjet hisobi va hisoboti haqida nazariy bilimlar berish, ularda davlatning bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat. Shuningdek, mamlakatimizda bozor mexanizmini shakllantirishdan va iqtisodiyotimizni samarali boshqarishni tashkil qilishdan iboratdir.

Magistrantlar bu fanni o'rganishlari natijasida quyidagi vazifalarni bajarishlari talab qilinadi:

- byudjet muassasalarida va tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari va tamoyillari;
- buxgalteriya hisobi, moliyalashtirish, pul mablag'lari bo'yicha hisoblashlar va kredit muomalalari, mehnat va ish haqi, asosiy vositalar, moddiy qiymatliklar va moliyaviy natijalar sohasidagi nazariy masalalarni o'zlashtirishlari lozim.

«Byudjet hisobi va hisoboti» fani magistrantlarga zarur bo'lgan bilimlarni shakllantirishda tasdiqlangan o'quv dasturiyining ajralmas qismi hisoblanadi.

O'quv dasturiga muvofiq magistrantlar «Byudjet hisobi va hisoboti» fanini chuqur o'rganadilar. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida muassasalarda byudjet hisobini xalqaro amaliyotdan kelib chiqqan holda tashkil qilish va yuritishni o'rganish asosiy vazifa qilib qo'yiladi. Magistrantlar bu fanni o'rganishda O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Davlat byudjeti va kassa ijrosining bank muassasalaridagi hisobini tashkil etish to'g'risida»gi qarori asos qilib olinadi. Shuningdek, fanni o'rganishda hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qaror va qonunlar, me'yoriy hujjatlar hamda iqtisodiy adabiyotlardan keng foydalaniladi.

Fan bo'yicha magistrantlarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

Mazkur yo'nalishda o'qiydigan magistrantlar «**Byudjet hisobi va hisoboti**» fani bo'yicha chuqur bilim olishi va etuk mutaxassis bo'lib etishishlari uchun ular oldiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- hozirgi zamon taraqqiyotida byudjet hisobi va hisobotining ahamiyati va o'rnini asoslay olish;
- byudjet hisobi fani iqtisodiyotni o'rganishning asosiy mezonini ekanligini tasdiqlay olish;
- iqtisodiyotning turli sohalarini samarali boshqaruvida buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asos bo'lib xizmat qilishiga ishonch hosil qilish;
- huquqiy davlat demokratik fuqarolik jamiyatining tinglovchilari, ayniqsa, buxgalter va auditor mutaxassisligini egallovchi tinglovchilari huquqshunoslik fanlarini chuqur egallagan bo'lishlari;
- moliyaviy natijalar bo'yicha o'zlarining xulosa va takliflarini keltira olish;
- iqtisodiy siyosatni shakllantirishda byudjet hisobi muhim bo'g'in ekanligi isbotlay olish;
- byudjet muassasalarida buxgalteriya hisobi davlat byudjeti ijrosining ajralmas qismi ekanligini asoslay bilish.

O'qitish jarayonida nazariy va amaliy bilimlarning uzviyligiga erishish, tinglovchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini tobora orttirib, ular uchun imkon qadar mustaqil bilim olishiga sharoit yaratib berish lozim.

Magistrantlarga fanni zamonaviy usulda o'rgatish va ularning bilimini xolisona baholash uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- magistrantlarni avvaldan tarqatma o'quv materiallari bilan ta'minlash;
- o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga ko'chirish;
- magistrantlarning o'z bilimlarini tayanch iboralar asosida mustaqil baholashini joriy qilish;
- amaliy mashg'ulotlarda byudjet muassasalaridagi yuritilayotgan buxgalteriya hisobi bo'yicha ish o'yinlarini. Bahs-munozaralarni tashkil qilish;
- iqtidorli magistrantlar bilan qo'shimcha darslarni tashkil etish va h. k.

«**Byudjet hisobi va hisoboti**» fanini o'rganuvchi magistrantlar auditoriyada olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun mustaqil tizimga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida o'quv rejasiga muvofiq mustaqil ta'lim oladilar. Mustaqil ta'lim olishdan asosiy maqsad nazariy bilimlarning amaliy jihatdan (testlar, referatlar) mustahkamlashdir. Mustaqil ta'lim mavzulari va topshiriqlari professor- o'qituvchilar tomonidan tavsiya qilinadi.

Mazkur fanning o'quv rejasidagi bilan o'zaro aloqadorligi

Fanni mukammal o'rganishda quyidagi fanlar bo'yicha keng bilimga ega bo'lish taqozo etiladi: «Xalqaro audit tizimi», «Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish mexanizmi», «Investitsiyalar auditi va baholash», «Boshqa tarmoqlarda auditning xususiyatlari», «Moliya matematikasi», «Davlat soliqlari va yig'implari», «Boshqaruv hisobi-2», «Moliyaviy tahlil-2», «Tashqi iqtisodiy faoliyat va valyuta operatsiyalari hisobi», «Moliyaviy hisob-2», «Banklarda hisob va to'lov tizimi», «Davlat moliyasini boshqarish» va boshqa fanlar.

Fanni o'qitishda yangi texnologiyalardan foydalanish

Magistrantlarga zamonaviy usulda "Byudjet hisobi va hisoboti" fanini o'rgatish va ularning bilimini baholashda quyidagilardan foydalaniladi:

- magistrantlarni avvaldan tarqatma o'quv materiallari bilan ta'minlash;
- tayanch iboralarni ishlab chiqishda ularning magistrantlar tomonidan mukammal o'zlashtirilishiga erishish;
- amaliy mashg'ulotlarda har bir tarmoq xususiyatlarini inobatga olgan holda ish o'yinlarini o'tkazish;
- iqtidorli magistrantlar bilan qo'shimcha darslar tashkil etish;
- magistrantlar bilimlarini o'zlari baholashlari va mustaqil ishlashlari uchun sharoit yaratib berish;
- magistrantlarga «1S:Buxgalteriya», «Turbo-Buxgalteriya» va boshqa dasturlar bilan ishlash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish.

Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar

«Byudjet hisobi va hisoboti» fani ikkinchi semestrda o'qitilib, unda byudjet hisobi va hisoboti haqida tushunchalar hamda qoidalar o'rgatiladi. Fan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida auditoriyada o'rganiladi. Magistrantlarning auditoriyada olgan nazariy bilimlari uy vazifalari bilan mustahkamlanadi. Ularning olgan bilimlari darajasini nazorat qilishda test-sinov usullari qo'llaniladi. O'quv jarayoni reyting tizimi asosida tashkil qilinadi.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha soatlar hajmi

Oliy kasb ta'limining Davlat ta'lim standartida «Byudjet hisobi va hisoboti» faniga jami 120, shundan, ma'ruza - 40, amaliy mashg'ulot - 40 mustaqil ta'limga 40 soat ajratilgan.

O'quv jarayonida magistrantlar bilimini baholash uchun ikki martadan joriy, va oraliq va bir marta yakuniy baholash o'tkaziladi.

2. FAN DASTURI

Ma'ruza mashg'ulotlarining mavzulari

Byudjet hisobi va hisoboti fanining predmeti va metodi

«Byudjet hisobi va hisoboti» fani iqtisodiy hisobining tarkibiy qismi sifatida. Byudjet hisobining predmeti va metodi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda buxgalteriya hisobi ob'ektlarining iqtisodiy mazmuni. *Buxgalteriya hisobining byudjet ijrosi sohasidagi roli va vazifalari.*

Byudjet hisobi va hisoboti. Davlat byudjetining buxgalteriya hisobi. Byudjet hisobining boshqa maxsus fanlar bilan o'zaro aloqasi. «Byudjet hisobi va hisoboti» fanini o'rganishni tashkiliy va metodik jihatdan takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasida byudjet hisobi va hisobotini tashkil qilish

O'zbekiston Respublikasida Davlat byudjeti ijrosining buxgalteriya hisobini tashkil qilishning asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasida Davlat byudjeti ijrosini amalga oshiruvchi organlar. Hisoblangan va kassaga kirim qilingan daromadlar. Kassaga kirim qilingan va haqiqatda sarflangan mablag'lar.

Byudjet daromadlari va xarajatlarini taqsimlash. Byudjet hisobini takomillashtirish va avtomatlashtirish. *Moliyaviy hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimining vazifalari va tayinlanishi.*

Davlat byudjeti daromadlari va pul mablag'larining hisobi

Pul mablag'lari va byudjet daromadlarini hisobga olishda buxgalteriya hisobining vazifalari.

Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda mahalliy byudjet pul mablag'larini hisobga olish uchun tayinlangan hisoblar. Yo'ldagi pul mablag'lar. Pul mablag'larining analitik hisobi. Maqsadli moliyalashtirishga yo'naltirilgan pul mablag'laridan foydalanish.

O'zbekiston Respublikasida Davlat byudjeti daromadlari hisobi. Korxonalar va tashkilotlar bilan byudjetli to'lovlar bo'yicha hisoblashishlarning buxgalteriya hisobi. Alohida byudjetlar o'rtasida byudjet daromadlarini taqsimlash. *Noaniq tushumlar va ularni hisobga olish.* Daromadlarning analitik hisobi

Byudjet kreditlari (assignatsiyalar), moliyalashtirish va xarajatlar hisobi

Byudjet kreditlari (assignatsiyalar) haqida tushuncha. Kredit taqsimlovchilar, ularning huquqlari va burchlari. Byudjetlar moliyalashtirish usullari: ochilgan kreditlar, kredit taqsimlovchilarning joriy hisoblariga pul mablag'larini ko'chirish.

Respublika Markaziy banki va boshqa banklar orqali davlat byudjeti mablag'larini ochilgan kreditlar usuli bilan xarajatga chiqarish tartibi. Ochilgan kreditlar bo'yicha muomalalarni amalga oshirish uchun tayinlangan hujjatlar. *Ochilgan kreditlarning buxgalterlik hisobi.*

Mahalliy moliya organlari tomonidan ularning qaramog'idan kredit taqsimlovchilarning joriy hisoblariga mahalliy moliya organlari tomonidan o'tkazib berilgan pul mablag'larining hisobi.

Mahalliy moliya organlari tomonidan kapital qo'yilmalarni va investitsiyalarni moliyalashtirish uchun bank muassasalariga pul o'tkazish tartibi. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining hisobi. Byudjet xarajatlari hisobining vazifalari.

Bosh kredit taqsimlovchilar tomonidan qilingan xarajatlarning hisobi. Bank muassasalari orqali davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan kapital qo'yilmalar va boshqa tadbirlar uchun qilingan xarajatlarning hisobi.

Bevosita moliya organlari tomonidan amalga oshirilgan byudjetning kassa xarajatlarini hisobga olish.

Kreditlar (assigaatsiyalar), pul mablag'lari va byudjet xarajatlarining kassa ijrosining analitik hisobi.

Byudjetlar o'rtasida hisoblashishlar, byudjet ssudalari, fondlar va byudjet ijrosi bo'yicha natijalar hisobi

Byudjet tuzish va tasdiqlash jarayonida byudjetlar o'rtasida sodir bo'ladigan hisoblashishlarning hisobi.

Berilgan va olingan mablag'lar bo'yicha davlat byudjeti ijrosi davrida yuzaga keladigan o'zaro hisoblashishlarning hisobi. Berilgan va olingan mablag'lar bo'yicha hamda o'zaro hisoblashishlar hisobi uchun tayinlangan hisoblar. Byudjetning qisqa muddatli ssudalarini olish va qaytarilishining sintetik va analitik hisobi.

Maqsadli byudjet rezervini tashkil qilish, undan foydalanish va uni hisobga olish tartibi. Maqsadli fondlar va mablag'lar tashkil qilish va ulardan foydalanish tartibi. Bu mablag'lar va fondlar analitik va sintetik hisobini yuritish. *Davlat byudjeti ijrosi natijalarini aniqlash* - davlat byudjeti ijrosi bo'yicha hisob yuritish va hisobot tuzishda muhim vazifadir.

Yil oxirida byudjet ijrosi bo'yicha joriy hisob raqamlarini yopish. Byudjet ijrosi natijalarini aks ettirish uchun mo'ljallangan hisoblar.

Yil yakunida hisoblarni yopish bo'yicha qilinadigan buxgalteriya yozuvlari va ularni hisob registrlarida aks ettirish. Byudjet bo'yicha yakuniy balans tuzish.

Byudjet muassasalarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish va uning vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida buxgalteriya hisobini tashkil qilish va uning vazifalari. Byudjet muassasalari ishining sifati va samaradorligini oshirishda buxgalteriya hisobining ahamiyati.

Byudjet hisobi va hisobotini markazlashtirish va avtomatlashtirish. *Byudjet muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi bosh buxgalterlarning huquqlari va burchlari.* Markazlashtirilgan va mustaqil holda buxgalteriya hisobini yurituvchi tashkilotlarda ishlarni tashkil qilish.

Markazlashtirilgan buxgalteriyalar, xizmat ko'rsatadigan byudjet muassasalari rahbarlarining huquqlari, burchlari va javobgarliklari.

Byudjet muassasalarida yuritiladigan buxgalteriya hisobining shakllari. Muassasa xarajatlari smetasi ijrosi hisobi bo'yicha foydalaniladigan buxgalteriya hujjatlari, ularning tayinlanishi, rasmiylashtirish texnikasi va tartibi.

Memorial - orderlar, yig'ma qaydnomalar haqida tushuncha ularning tayinlanishi va yuritish tartibi. Sintetik va analitik hisob registrlari va ularga yozuvlar qilish tartibi. *Byudjet muassasasining buxgalteriya balansi va uning tartibi.* Iig'ma qaydnomalarni yuritish tartibi. Sintetik va analitik hisob registrlari. Hisob registrlari va ularga yozuvlar qilish tartibi. Dastlabki hujjatlar va buxgalteriya hisobi registrlarini saqlash tartibi.

Byudjet muassasalarida pul mablag'lari hisobi va uni tashkil qilish

Respublika byudjeti qaramog'idagi byudjet muassasalarida kreditlarni hujjatli rasmiylashtirish va hisobga olish.

Kredit taqsimlovchi bosh muassasaning va unga qarashli bo'lgan tashkilotlarning balansidagi ochilgan hisoblari kreditlarning hisob - kitoblari. Ochilgan kreditlarning analitik hisob - kitoblari. Respublika va mahalliy byudjetga qarashli bo'lgan muassasalarda pul mablag'lari va kreditlar (assignatsiyalar) hisobini tashkil qilish. Markazlashgan buxgalteriyalarda pul mablag'lari, byudjet kreditlari hisobini tashkil qilish. Kassadagi va haqiqatda sarflangan mablag'larning hisobi. Muassasalar va ularni asrash bilan haqiqiy xarajatlar va ularning hisobi

uchun qo'llaniladigan hisoblar. Haqiqiy xarajatlarning analitik hisobi. Bosh va quyi kredit taqsimlovchilar.

Pul mablag'lari hisobining banklardagi joriy hisoblari. Kassa muomalalarining hisobini tashkil qilish. Kassa muomalalarini olib borish to'g'risidagi Nizom. Kassa muomalalarini hujjatlashtirish. Kassani taftish qilish. Kassa xarajatlari hisobi bo'yicha qo'llaniladigan hisoblar. Boshqa pul mablag'larining analitik hisobi va ularga tavsif berish. Mustaqil ish yurituvchi markazlashtirilgan buxgalteriyada va muassasalarda kassa xarajatlarning analitik hisobi va hisobni saqlash bilan bog'liq bo'lgan haqiqiy xarajatlar.

Asosiy vositalar va materiallar hisobi

O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi (1996 yil 30 avgust) Qonuni va 5-BHMS dan kelib chiqadigan asosiy vositalar hisobi oldida turgan vazifalar. Byudjet muassasalaridagi asosiy vositalarning xususiyatlari.

Asosiy vositalarning analitik hisobi. Asosiy vositalarning eskirish hisobi. Byudjet muassasalarida material qiymatliklarning tarkibi, tayinlanishi va hisobining vazifalari. Material qiymatliklarni qabul qilish, berish va xarajatga chiqarish bo'yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlar. Material qiymatliklarini qayd etuvchi hisoblar. Hisob va hisobot jarayonida qo'llaniladigan analitik hisob registrlari va ularni qayta ishlash.

Hisoblashishlarning buxgalteriya hisobi, inventarizatsiya va schyotlarni yil oxirida yopish, byudjetdan tashqari tushumlar hisobi

Byudjet tashkilotlarida mehnat va ish haqi. Mehnat va ish haqini hisoblashda qo'llaniladigan dastlabki axborotlar. Ishchi va xizmatchilar bilan ish haqi bo'yicha hisoblashishlarning buxgalteriya hisobi. Mehnat va ish haqi hisobi. Ish haqi fondi va uni ishlatilishi nazorati. Aspirantlar, tinglovchilar va o'quvchilar stipendiyalari bo'yicha hisoblashishlar hisobi. Har xil debitor va kreditorlar bilan hisoblashishlar hisobi. Deponentlar bilan hisob-kitoblarning maxsus to'lovlar turlari bo'yicha hisoblashishlar hisobi. Maktab yoshigacha bo'lgan muassasalar hisobining xususiyatlari. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha hisoblashlarning hisobi. Ijtimoiy sug'urta organlari bilan hisoblashishlar tartibi. Hisobdor shaxslar bilan hisoblashishlar hisobi. *Maxsus mablag'lar, topshiriqnomalar bo'yicha narx va depozit summalari byudjetdan tashqari mablag'larning hisobi.* Byudjet tashkilotlari qoshidagi ishlab chiqarish ustaxonalari, o'quv tajriba xo'jaliklari va yordamchi qishloq xo'jaliklarida ustavga tegishli bo'lmagan muomalalar hisobi.

Mahalliy byudjet ijrosi buxgalteriya hisobini tashkil qilish

Qishloq, posyolka va shahar kengashlarida byudjet ijrosining markazlashgan hisobi. Joriy schyotlar hisoblari rejasi. Uning nizomi va markaziy buxgalteriyada qo'llanilishi. Pul mablag'lari hisobi, moliyalashtirish va kassa muomalalari. Naqd pullarni kassaga kirim qilish tartibi va ularni hujjatlarda rasmiylashtirish.

Maxalliy byudjet va muassasa xarajatlar tizimi ijrosi bo'yicha xarajatlar, daromadlar hisobi va boshqa muomalalar. Maxsus mablag'lar bo'yicha hisob muomalalari. Qabul qilish tartibi,

xarajatlar va o'z mablag'lari hisobiga qoplanadigan mablag'lar hisobi. *Byudjet bo'yicha hisobot va o'z-o'zini qoplash mablag'lari.* Boshlang'ich va yillik hisobotni tuzish, tasdiqlash va taqdim qilish tartibi.

O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti kassa ijrosining bank muassasalaridagi hisobi

Davlat byudjeti kassa ijrosining hisobini tashkil etish va uning vazifalari. Davlat byudjeti kassa ijrosining bank muassasalaridagi hisobini yuritishda qo'llaniladigan balans hisoblar. Byudjet kreditlarini hisobga olish uchun qo'llaniladigan balansdan tashqari hisoblar. Daromadlarni qabul qilish va hisobga olish bo'yicha muomalalar. Byudjet daromadlari bo'yicha

hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi. *Byudjetlar o'rtasida daromadlarni taqsimlash va hisobga olish tartibi*. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va mahalliy byudjetlar o'rtasida daromadlarni taqsimlash. Respublika byudjeti, viloyatlar va mahalliy byudjetlar xarajatlari hisobi.

Mahalliy byudjet mablag'larining hisobi. Kreditlar va kassa xarajatlarining analitik hisobi. Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha muomalalar, depozit summalar hisobi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining davlat byudjeti kassa ijrosi bo'yicha hisoboti. Hisobotning turlari uning mazmuni davriyligi va ahamiyati. Bank muassasalarida kapital qo'yilmalar va boshqa tadbirlar bo'yicha muomalalar hisobi. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish bo'yicha banklarda tuziladigan hisobot.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining va byudjet muassasalarining smeta xarajatlari ijrosining hisoboti

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining ijrosi bo'yicha hisobotning vazifalari va ahamiyati. Hukumatimiz qarorlariga muvofiq hisobotning rolini oshirish tadbirlari. Davlat byudjeti ijrosi haqida moliya organlarida tuziladigan hisobot. *Hisobotlarning mazmuni, tuzish, davriy va yillik hisobotni taqdim qilish tartibi*. Byudjet ijrosi haqida tuzilgan yillik hisobotlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi.

3. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARI

Byudjet hisobi, uning predmeti va metodi

Byudjet hisobi va hisoboti kursi yagona xalq xo'jaligi hisobining tarkibiy qismi sifatida. Byudjet hisobining predmeti va metodi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishda buxgalteriya hisobi ob'ektlarining iqtisodiy mazmuni. Buxgalteriya hisobining byudjet ijrosi sohasidagi roli va funktsiyalari*.

Byudjet hisobi va hisoboti. Byudjet hisobining boshqa maxsus fanlar bilan aloqasi. Byudjet hisobi va hisoboti kursining tashkiliy va metodik jihati, uni takomillashtirish istiqbollari.

O'zbekiston Respublikasida byudjet hisobi va hisoboti

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ijrosining buxgalteriya hisobini tashkil qilishning asosiy printsiplari. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining ijrosini amalga oshirishda ishtirok etuvchi organlar. Hisoblangan va kassaga kirim qilingan daromadlar*. Kassaga kirim qilingan va haqiqatda sarflangan mablag'lar.

Byudjet daromadlari va xarajatlarining taqsimi.

Prezidentimiz farmonlari va hukumatimiz qarorlari asosida byudjet hisobini takomillashtirish va avtomatlashtirish. Moliyaviy hisob-kitoblarni avtomatlashtirilgan tizimining vazifalari va tayinlanishi.

Davlat byudjeti daromadlari va pul mablag'larining hisobi

Pul mablag'lari va byudjet daromadlarini hisobga olishda buxgalteriya hisobining vazifalari. Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda mahalliy byudjet pul mablag'lari hisobga olish uchun tayinlangan hisoblar. Yo'ldagi pul mablag'lari. Pul mablag'larining analitik hisobi. Maqsadli moliyalashtirishga yo'naltirilgan pul mablag'laridan foydalanish.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarining hisobi*. Korxonalar va tashkilotlar bilan byudjetli to'lovlar bo'yicha hisoblashishlarning buxgalteriya hisobi. Alohida byudjetlar o'rtasida byudjet daromadlarini taqsimlash. Noaniq tushumlar va ularni hisobga olish. Daromadlarning analitik hisobi bo'yicha masalalar echiladi.

Byudjet kreditlari (assignatsiyalar)ni moliyalashtirish va xarajatlar hisobi

Byudjet kreditlari (assignatsiyalar) haqida tushuncha. Kredit taqsimlovchilar, ularning huquqlari va burchlari. Byudjetlar, moliyalashtirish usullari: ochilgan kreditlar, kredit taqsimlovchilarning joriy hisoblariga pul mablag'larini ko'chirish.

Respublika Markaziy banki va boshqa banklari orqali davlat byudjeti mablag'larini ochilgan kreditlar usuli bilan xarajatga chiqarish tartibi. Ochilgan kreditlar bo'yicha muomalalarini amalga oshirish uchun tayinlangan hujjatlar*.

Ochilgan kreditlarning buxgalteriya hisobi.

Mahalliy moliya organlari tomonidan ularning qaramog'idan kredit taqsimlovchilarining joriy hisoblariga mahalliy moliya organlari tomonidan o'tkazib berilgan pul mablag'larining hisobi.

Mahalliy moliya organlari tomonidan kapital qo'yilmalarni va investitsiyalarni moliyalashtirish uchun bank muassasalariga pul o'tkazish tartibi. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarining hisobi. Prezidentimiz farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va hukumatimiz qarorlaridan kelib chiqadigan byudjet xarajatlari hisobining vazifalari.

Bosh kredit taqsimlovchilar tomonidan qilingan xarajatlarining hisobi. Bank muassasalari orqali davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan kapital qo'yilmalar va boshqa tadbirlar uchun qilingan xarajatlarning hisobi*.

Bevosita moliya organlari tomonidan amalga oshirilgan byudjetning kassa xarajatlarini hisobga olish.

Kreditlar (assignatsiyalar) pul mablag'lari va boshqa byudjet xarajatlarining kassa ijrosini analitik hisobi bo'yicha masalalar echiladi.

Byudjetlararo hisoblashishlar, byudjet ssudalari, fondlar va byudjet ijrosi bo'yicha natijalar hisobi

Byudjet tuzish va tasdiqlash jarayonida byudjetlar o'rtasida sodir bo'ladigan hisoblashishlarning hisobi.

Berilgan va olingan mablag'lar bo'yicha davlat byudjeti ijrosi davrida yuzaga keladigan o'zaro hisoblashishlar hisobi. Berilgan va olingan mablag'lar bo'yicha hamda o'zaro hisoblashishlar hisobi uchun tayinlangan schyotlar. Byudjetning qisqa muddatli ssudalarini olish va qaytarilishining sintetik va analitik hisobi. Maqsadli byudjet rezervini tashkil qilish, undan foydalanish va uni hisobga olish tartibi*. Maqsadli fondlar va mablag'lar tashkil qilish va ulardan foydalanish tartibi. Bu mablag'lar va fondlar analitik va sintetik hisobini yuritish davlat byudjeti ijrosi bo'yicha hisob yuritish va hisobot tuzishda muhim vazifadir.

Yil oxirida byudjet ijrosi bo'yicha joriy hisob raqamlarini yopish. Byudjet ijrosi natijalarini aks ettirish uchun mo'ljallangan hisoblar.

Yil yakunida hisoblarni yopish bo'yicha qilinadigan buxgalteriya yozuvlarini hisob registrlarida aks ettirish. Byudjet bo'yicha yakuniy balans tuzish bo'yicha masalalar echish.

Byudjet muassasalarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish

Buxgalteriya hisobini tashkil qilish va uning vazifalari. Byudjet muassasalari ishining sifati va samaradorligini oshirishda buxgalteriya hisobining ahamiyati.

Byudjet hisobi va hisobotini markazlashtirish va avtomatlashtirish*. Byudjet muassasalari va buxgalteriyalarida faoliyat ko'rsatuvchi bosh buxgalterlarning huquqlari va burchlari. Markazlashtirilgan va mustaqil holda buxgalteriya hisobini yurituvchi tashkilotlarda ishlarni tashkil qilish.

Markazlashtirilgan buxgalteriyalar, xizmat ko'rsatadigan byudjet muassasalari rahbarlarining huquqlari, burchlari va javobgarliklari.

Byudjet muassasalarida yuritiladigan buxgalteriya hisobining shakllari. Muassasa xarajatlar smeta.si ijrosi hisobi bo'yicha foydalaniladigan buxgalteriya hujjatlari, ularning tayinlanishi, rasmiylashtirish texnikasi va tartibi.

Memorial-orderlar va qaydnomalar, ularning tayinlanishi va yuritish tartibi. Sintetik va analitik hisob registrlari va ularga yozuvlar qilish tartibi. Byudjet muassasasining buxgalteriya balansi va uning tartibi. Ularga yozuvlar qilish tartibi. Yig'ma qaydnomalar yuritish tartibi. Sintetik va analitik hisob registrlari. Hisob registrlari va ularga yozuvlar qilish tartibi. Byudjet muassasasining buxgalteriya balansi va uning tartibi. Dastlabki hujjatlar va buxgalteriya hisobi registrlarini saqlash tartibi. Arxiv ishini tashkil qilish bo'yicha seminar darslar o'tkaziladi va masalalar echiladi.

Byudjet muassasalarida pul mablag'lari hisobi va uni tashkil qilish

Respublika byudjeti qaramog'idagi byudjet muassasalarida kreditlarni hujjatli rasmiylashtirish va hisobga olish.

Kredit taqsimlovchi bosh muassasaning va unga qarashli bo'lgan tashkilotlarning balansidagi ochilgan hisoblari, kreditlarning hisob - kitoblari*. Ochilgan kreditlarning analitik hisob - kitoblari. Respublika va mahalliy byudjetga qarashli bo'lgan muassasalarda pul mablag'lari va (assignatsiyalar) hisobini tashkil qilish. Markazlashgan buxgalteriyalarda pul mablag'lari, byudjet kreditlarini hisobini tashkil qilish. Kassadagi va haqiqatda sarflangan mablag'larning hisobi. Muassasalar va ularni asrash bilan haqiqiy xarajatlar va ularning hisobi uchun qo'llaniladigan hisoblar. Haqiqiy xarajatlarning analitik hisobi. Bosh va quyi kredit taqsimlovchilar. Pul mablag'lari hisobining banklardagi joriy hisoblari. Kassa muomalalarining hisobini tashkil qilish. Kassa muomalalarini olib borish to'g'risidagi nizom. Kassa muomalalarini hujjatlashtirish. Kassani taftish qilish. Kassa xarajatlari hisobi bo'yicha qo'llaniladigan hisoblar. Boshqa pul mablag'larining analitik hisobi va ularga tavsif berish. Mustaqil ish yurituvchi markazlashtirilgan buxgalteriyada va muassasalarda kassa xarajatlarining analitik hisobi va hisobni saqlash bilan bog'liq bo'lgan haqiqiy xarajatlar, uning hisobida qo'llaniladigan muassasalar hisobini saqlash bo'yicha masalalar echish.

Asosiy vositalar, materiallar, arzon va tez eskiruvchi buyumlar hisobi

Byudjet muassasalarida asosiy vositalarining xususiyatlari. Asosiy vositalarning analitik va sintetik hisobi*. Asosiy vositalarning eskirishi hisobi. Hisob va hisobot jarayonida qo'llaniladigan analitik hisob registrlari va ularni EHM larda qayta ishlash bo'yicha masalalar echish.

Hisoblashishlarning buxgalteriya hisobi, inventarizatsiya va hisoblarni yil oxirida yopish, byudjetdan tashqari tushumlar hisobi

Byudjet tashkilotlarida mehnat va ish haqining vazifalari. Mehnat va ish haqini hisoblashda qo'llaniladigan dastlabki axborotlar. Ishchi va xizmatchilar bilan ish haqi bo'yicha

hisoblashishlarning buxgalteriya hisobi. Hisobdor shaxslar bilan hisoblashishlar hisobi*. Byudjet tashkilotlari qoshidagi ishlab chiqarish ustaxonalari, o'quv tajriba xo'jaliklari va yordamchi qishloq xo'jaliklarida ustavga tegishli bo'lmagan muomalalar hisobidan masalalar echish.

Maxalliy byudjet ijrosi hisobining xususiyatlari

Qishloq, posyolka va shahar byudjeti ijrosi buxgalteriya hisobini tashkil qilish.

Qishloq, posyolka va shahar kengashlarida byudjet ijrosining markazlashgan hisobi*. Qishloq posyolka va shahar deputatlaridagi markazlashgan buxgalteriya to'g'risidagi Nizom. Joriy hisob hisoblari rejasi. Uning nizomi va markaziy buxgalteriyada qo'llanilishi. Pul mablag'lari hisobi, moliyalashtirish va kassa muomalalari. Naqd pullarni kassaga kirim qilish tartibi va ularni hujjatlarda rasmiylashtirish.

Maxalliy byudjet va muassasa xarajatlar smetasini ijrosi bo'yicha xarajatlar, daromadlar hisobi va boshqa muomalalar. Maxsus mablag'lar bo'yicha hisob muomalalari. Qabul qilish tartibi xarajatlar va mablag'lar hisobiga qoplanadigan mablag'lar hisobi. Byudjet bo'yicha hisobot va o'z-o'zini qoplash mablag'lari.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti kassa ijrosining bank muassasalaridagi hisobi

Davlat byudjeti kassa ijrosini hisobini tashkil etish va uning vazifalari*. Davlat byudjeti kassa ijrosining bank muassasalaridagi hisobini yuritishda qo'llaniladigan balans hisoblar. Byudjetlar o'rtasida daromadlarni taqsimlash va hisobga olish tartibi. Mahalliy byudjet mablag'larining hisobi. Kredit va kassa xarajatlarining analitik hisobi. Bank muassasalarida kapital qo'yilmalar va boshqa tadbirlar bo'yicha muomalalar hisobi. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish bo'yicha banklarda tuziladigan hisobot bo'yicha seminar darslar o'tkaziladi va masalalar echiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining va byudjet muassasalarining smeta xarajatlari ijrosi to'g'risida hisobot

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining ijrosi bo'yicha hisobotning vazifalari va ahamiyati.* Hisobotning rolini oshirish tadbirlari. Davlat byudjeti ijrosi haqida moliya organlarida tuziladigan hisobot. Byudjet ijrosi haqida tuzilgan yillik hisobotlarni ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi bo'yicha seminar darslar o'tkaziladi va masalalar echiladi.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHQA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI

Magistrantlar «Byudjet hisobi va hisoboti» fanini o'rganishda turli shakldagi chizmalar, slaydlar bilan ta'minlanadi va foydalanishadi.

Ularda quyidagi ma'lumotlar aks ettirilgan:

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi va uning tashkiliy tuzilishi, byudjet xarajatlari smetasi tarkibi, byudjet tasnifi, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilishi, byudjet hisobotlari turlari, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi, byudjet daromadlari va xarajatlari, mehnat haqi bo'yicha hisoblashishlar, byudjet hisobining schyotlar rejasi, moliyaviy hisobot shakllari.

Magistrantlar «Byudjet hisobi va hisoboti» fanini o'rganishda axborot vositalaridan, ya'ni Internet tizimidan, jumladan qo'yidagi sayt va elektron pochtalardan ham keng foydalanishadi:

1. <http://www.apb.org.uk> (Auditing Practices Board)
2. <http://www.nao.gov.uk> (UK National Audit Office)
3. <http://www.iaa.org.uk> (The Institute of Internal Auditors- United Kingdom)
4. <http://www.iasc.org.uk> (International Accounting Standards Committee)
5. <http://www.aicpa.org/index.html> (American Institute of Certified Public Accountants)

6. www.uza.uz (O'zbekiston milliy axborot agentligining turli sohalarga doyr kundalik yangiliklari)
7. www.cer.uz (Iqtisodiy izlanishlar markazi)
8. www.pravo.eastink.uz (Iqtisodiy qonunlar to'plami)
9. www.referat.uz referatlar to'plami va boshqalar.

Shuningdek, mamlakatimizdagi chop etilayotgan gazeta va jurnallardan mutaxassislikka doir materiallar olinadi. Fan bo'yicha o'zgarishlar, yangiliklar va me'yoriy hujjatlar bilan o'qituvchilar tanishtirib boradilar.

1. O'ZLASH TIRISH NAZORATI

«Byudjet hisobi va hisoboti» fani ikkinchi semestrda o'qitiladi. O'quv jarayoni davomida tinglovchi to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 120 ga teng bo'lib, shundan joriy va oraliq baholashda 120 soat (ya'ni 120 ball)ning 70 foizgacha ball to'plashi lozim bo'ladi. Qolgan 30 foizi yakuniy baholash jarayonida to'planadi. Ushbu baholash davomida har bir magistrant 30 ballgacha to'plashi mumkin. Shundan har bir savolga maksimal 8,6 balldan, minimal 5,4 ballgacha qo'yiladi.

Magistrantlarning fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB);
- oraliq baholash (OB);
- yakuniy baholash (YaB).

JB hamda OB turlari va belgilangan ballar miqdori (o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning 70%) o'qitilayotgan fanga mas'ul bo'lgan kafedra qarori bilan mavzuning murakkabligi va zaruriyligiga qarab quyidagi mezonlar bo'yicha taqsimlanadi:

- magistrantning o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha manbalarni konspektlashtirish;
- dolzarb mavzularda referatlar yozish;
- ilmiy tezis (maqola) lar tayyorlash, ilmiy-uslubiy anjumanlarda chiqishlar qilish;
- ilmiy adabiyot va izlanish natijalariga annotatsiyalar yozish;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarish;
- xorijiy tillarda chop etilgan adabiyotlarni tarjima qilish;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlash;
- fanning bir necha mavzularini qamrab olgan bo'lim yoki qism bo'yicha magistrantlarning nazariy bilimlarini baholash.

YaBda fan bo'yicha dastur to'la o'tilgandan so'ng magistrantning bilimi baholanadi.

YaBga ajratilgan ballar miqdori, o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 30% miqdorida belgilanadi. Barcha fanlar bo'yicha YaB bosqichi yozma ish usulida o'tkaziladi.

Tayanch tushunchalarga asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi «Reyting tizimining yakuniy baholash bosqichida «Yozma ish» usulini tatbiq etish bo'yicha Namunaviy Nizom bilan belgilanadi».

OB yozma ish yoki boshqa usullarda (og'zaki, test, himoya va hokazo) ham o'tkazilishi mumkin.

Dekanat (markaz) belgilangan tartibda fan bo'yicha magistrantning JB, OB va YaBdagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini tahlil etib boradi va ularning natijalarini belgilangan shakldagi qaydnomalarda aks ettiradi.

Reyting natijalari oliy ta'lim muassasasining Ilmiy Kengashida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

Oliy ta'lim muassasasi fanlar uchun baholash turlarining har biri bo'yicha reyting ballarini hisoblash mexanizmlarini ishlab chiqadi va uslubiy kengashda tasdiqlaydi.

Semestr, o'quv yili davomida o'qitilgan fan bo'yicha maksimal 55 va undan yuqori foizini to'plagan magistrant qoniqarli o'qiyotgan deb hisoblanadi. Fan bo'yicha maksimal ballning 55% idan kam ball to'plagan magistrant qoniqarsiz o'qiyotgan (akademik qarzdor) deb hisoblanadi.

Nazorat natijalari har bir magistrantning «Byudjet hisobi va hisoboti» fanidan bilim darajasi, uning to'plagan ballari bilan baholanadi va alohida hujjatda qayd etiladi.

Agar magistrant savollarga to'g'ri va murakkab javob bersa, savol yuzasidan keltirilgan faktlarni mustaqil fikrlab baholay olsa, bunday hollarda unga yuqorida belgilangan maksimal ballning (103-120) 86 % dan 100 % gacha «**a'lo**» qo'yiladi.

Agar magistrant savolning har bir qirrasini to'liq bilib, o'z fikrini mustaqil bayon etsa, zaruriy xulosa va umumlashtirishlarni chiqara olsa, lekin javobida ayrim noaniqliklarga yo'l qo'ysa, uning javobi (85-102) 71% dan 85% gacha, ya'ni «**yaxshi**» bahoga baholanadi.

Agar magistrant savolning har bir qirrasini yoritishda noaniqliklarga yo'l qo'ysa, uning javobi maksimal ballning (66 - 84) 55%dan 71%gacha «**qoniqarli**» bahoga baholanadi.

Agar magistrant savollarga umuman javob berolmasa, uning bilim darajasi 55% gacha bo'lsa «qoniqarsiz», ya'ni yakuniy baholashdan o'tmagan hisoblanadi.

6. ADABIYO TLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I. A. O'zbekiston asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «1999 yilda O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti to'g'risida»gi 539-sonli qarori. 1998 yil 31 dekabr.
4. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni 30 avgust 1996 yil. // Xalq so'zi, 12 sentyabr 1996 yil.
5. «Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chikarish va sotish xarajatlari tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom» (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevral 54-sonli Qarori).
6. O'zbekiston Respublikasining Moliya Vazirligining 1997 yil 15 yanvar 5-sonli buyrug'i (Yillik va yarim yillik hisobotlarni to'ldirish to'g'risida).
7. «Buxgalteriya hisobining milliy standartlari» (BHMS). - T.: Moliya, 1998.
8. Belov A.N. Buxgalterskiy uchetskiy uchredeniya neproizvodstvennoy sferi. -M.: Finansi i statistika, 1995.
9. Belov A.N. Buxgalterskiy uchetskiy uchredeniya neproizvodstvennoy sferi 2-e izd., pererab i dop. -M.: Finansi i statistika, 1998.
10. Belov V.N, Selezneva N. N, Skobeleva I.P. Upravlenie pribilyu - SPB. -M.: Prior, 1996.
11. Griffin Keyt. Sotsialnaya politika i ekonomicheskie preobrazovaniya v Uzbekistane. Programma razvitiya OON 1995.
12. Kondrakov N.P Buxgalterskiy uchetskiy uchredeniya neproizvodstvennoy sferi. -M.: Infra, 1997.
13. Kondrakov P.N, Kondarkov I.N Buxgalterskiy uchetskiy uchredeniya neproizvodstvennoy sferi. -M.: Finansi i statistika, 1998.
14. Soliev A., Xo'jaxonov X. Noishlab chiqarish sohalari iqtisodi, buxgalteriya hisobi va audit. - T.: Mehnat, 1998.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to'g'risida»gi Qonuni. -T.: 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, -T.: O'zbekiston, 1997.

3. «O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari» Axborotnomasining 2001-2002 yil sonlari (Ilovalar bilan birga).
4. Entoni R., Ris. Dj. Uchet: situatsii i primeri» (per s angl). -M.: Finansi i statistika, 1998.
1. Fremgen F.M. Accounting for managerial Analysis: Third Edition. Richard D. Irwing Inc., Homewood, Illions, 1996.
2. Kenneth M. Morris & Allan M. Siegel. Guide to understanding money & investing. 2000 by lightbulb, press, Inc.
3. Securities Regulation in The Unite States. NASD. Washington - 2000.
4. The Istanbul Stock Exchange In a Historical Perspective. Written by Pfor. Haydar Kazgan / published by ISE. Istanbul, 2000.
5. The Work Of SEC. U.S. Securities and Exchange Commission. - 2001.